Qabul qilindi: 10-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 16-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 22-sentabr 2026-yil

# TURKISTON JADIDLARINING TARIX FANINI RIVOJLANTIRISHDAGI FAOLIYATI

**Nigina Ismatova Nuriddinovna**
Buxoro viloyati, Kogon tumanidagi
2-umumiy o‘rta ta’lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati vakillarining tarix ta’limini isloh qilish va rivojlantirish borasidagi faoliyati tahlil qilinadi. Jadidlarning yangi usul maktablarini joriy etishi, ushbu maktablarda tarix fanini o‘qitish tizimini yaratish, milliy tarixga oid darsliklar tayyorlash, matbuot vositasida tarixiy-ma’rifiy g‘oyalarni targ‘ib qilish borasidagi ishlari yoritiladi. Maqolada shuningdek, jadidlarning tarix fanini millatning o‘tmishini anglash, milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish vositasi sifatida talqin qilgani, bu qarashlarning bugungi milliy tarix ta’limi tizimi uchun ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Jadidchilik, tarix ta’limi, yangi usul maktablari, milliy darslik, ma’rifatparvarlik, milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur.

XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan ma’rifatparvarlik harakati Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidlar o‘z davrining ilg‘or ziyolilari sifatida jamiyat taraqqiyoti, avvalambor, ta’lim tizimini isloh qilishdan boshlanishi lozimligini chuqur anglaganlar.

XIX asr oxirida boshlangan ushbu islohotning nazariyotchisi ham amaliyotchisi Ismoil Gasprinskiy edi. “Millatning shiddatli extiyoji maktab va ma’orif. Uning kelajagi maktab va ma’orifga bog‘liq: hokim millatning mahkum bo‘lishi, mahkum millatning yo‘q bo‘lib ketishi maktabsizlikdan”,- deya yozadi Gasprinskiy. Bu masalani u birinchi marta rasmiy ravishda 1881 yili o‘zining “Rusiya musulmonligi” asarida ko‘targan edi. Gasprinskiyning hisob-kitoblariga qaraganda, 1881 yili Rusiyada 16 million musulmon bor edi. Ularning qo‘l

ostidagi 16 ming boshlang‘ich maktab va 214 madrasada yarim million bola tahsil olgan. Maktablar rasman diniy hisoblanib, shariat idoralarining nazorati ostida bo‘lgan. Aslida esa bu maktablarni hech kim nazorat ham, taftish ham qilmas edi. Lekin omma afkori harakatga keltirilsa, maktab ishiga jalb etilsa, bir qancha ishlarni amalga oshirish mumkinligini anglagan Gasprinskiy butun kuchini shu ishga tashladi va islohot qilish uchun barchani da’vat qila boshladi. Gasprinskiyning maktab va maorifni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko‘rishi Turkiston jadidlarining qarashlariga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Uning “usuli jadid” asosidagi ta’limni yo‘lga qo‘yish, dars berish usullarini yangilash va yoshlarni zamonaviy ilm-fanga jalb etish borasidagi tashabbuslari O‘rta Osiyo ma’rifatparvarlari tomonidan davom ettirildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jayev, Obidjon Mahmudov, Fitrat, Cho‘lpon, Saidnosir Mirjalilov va boshqalar mahalliy xalqni milliy istiqlol bayrog‘i ostida birlashtirish va hokimiyatni qo‘lga olib, milliy o‘zbek davlatini barpo etish yo‘lidagi ilk qadamni amalga oshirganlar. Ular mavjud tarixiy sharoitdan foydalanib, “Turon”, “Imdodiya” singari ma’rifiy jamiyatlar hamda “Sho‘roi islom”, “Turk adam markaziyat” kabi milliy siyosiy tashkilotlarni tuzdilar. Taraqqiyparvarlar xuddi shu davrda xalq va mamlakat taqdiriga aloqador muhim masalalar bilan shug‘ullanib, xalqning yumuq ko‘zlarini ochishga, uni erk, hurriyat va mustaqillik singari buyuk tarixiy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga intildilar. Ular millatni mustamlakachilik kishanlarini parchalab tashlashi uchun kurashga da’vat etdilar. Jadidlar bu yo‘lda xalq maorifini taraqqiyotning eng ishonchli quroli sifatida birlamchi darajaga ko‘tardilar. Turkistonda oliy ta’lim muassasalarining yo‘qligi tufayli jadid taraqqiyparvarlari yoshlarni chet ellarda o‘qitish, ayniqsa, Yevropa ilm-fani yutuqlari bilan tanishtirish masalasiga alohida e’tibor qaratganlar.

Jadidlarning milliy uyg‘onish va taraqqiyot yo‘lidagi faoliyati, eng avvalo, ta’lim sohasidagi islohotlar orqali namoyon bo‘ldi. Ular xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish, milliy o‘zlikni anglash va zamonaviy tafakkurni shakllantirish uchun yangi usul maktablarini tashkil etishni muhim vazifa deb bildilar. Yangi usul maktablarida an’anaviy ta’limdan farqli ravishda o‘quvchilarga ona tili, hisob, geografiya, tarix kabi fanlarni o‘qitishga, dars jarayonida zamonaviy pedagogik usullardan foydalanishga alohida

e’tibor qaratildi. Shu tariqa jadidlar maktabni nafaqat savod chiqarish maskani, balki milliy ong va ma’rifatni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida qaradilar.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy tarix fanini xolis va ilmiy asosda qayta tiklash, uni yosh avlod tarbiyasining markaziy vositasiga aylantirish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday ishlarning tarixiy ildizlari albatta jadidlar faoliyatiga borib taqaladi. Chunki jadidlar o‘z davridayoq milliy tarixni bilish bilan milliy istiqlol g‘oyasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqur his qilganlar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qator sharq va musulmon mamlakatlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati Turkiston o‘lkasida teran tarixiy ildizlarga egadir. Yurtimiz ulkan ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy ahamiyatga ega ushbu jarayonlardan chetda qolmagani, aksincha, bu harakatning markazlaridan biriga aylanganini ta’kidlash lozim. O‘z zamonining ilg‘or namoyandalari bo‘lgan jadidlar g‘oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma’rifat tarqatish, ta’lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g‘oyasi bilan maydonga chiqdilar. Shu maqsadda o‘z mablag‘lari hisobidan maktab va teatrlar, nashriyot va kutubxonalar, gazeta va jurnallar tashkil qildilar, qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yubordilar. Ularning bu olijanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida kuchli aks sado berib, qudratli to‘lqinga aylandi.

Jadidlarning bu faoliyati, avvalo, ta’lim tizimini yangilash va yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yangi usul maktablarining tashkil etilishi, zamonaviy darslik va o‘quv qo‘llanmalarining yaratilishi Turkiston tarixida ta’lim taraqqiyotining muhim bosqichlaridan birini tashkil etdi. Jadid ma’rifatparvarlari ta’limni faqat savod chiqarish vositasi sifatida emas, balki milliy ong, tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ko‘rdilar. Jadidlar o‘z maqsadlarini amalga oshirishda maktab faoliyatiga katta e’tibor qaratdilar. Shu jihatdan jadidlarning ta’lim sohasidagi islohotlari oddiy maktab yangilanishi bilan cheklanib qolmadi, balki jamiyatning ma’naviy va intellektual taraqqiyotiga xizmat qiluvchi keng qamrovli harakatga aylandi. Ular ta’lim orqali yosh avlodda tarixiy xotira, milliy o‘zlik, vatanparvarlik va zamonaviy bilimlarga intilish tuyg‘ularini shakllantirishga intildilar. Ayniqsa, tarix fanining o‘qitilishi yoshlarni o‘z xalqining o‘tmishini anglash,

undan saboq chiqarish va kelajak haqida mustaqil fikrlashga yo‘naltirishda muhim vosita sifatida qaraldi. Shu sababli jadidlarning yangi usul maktablari va ular uchun yaratgan darsliklari Turkistonda tarix ta’limining yangilanishi va rivojlanishida muhim bosqich bo‘lib xizmat qildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga” murojaati. 2023-yil 6-mart.

2.Abdirashidov Zaynobidin. Ismoil Gasprinskiy va Turkistonda jadidchilik. – Toshkent, 2008.

3.Naimov Nusratillo. “Buxoro jadidlari (tarixiy ocherklar,hujjatli qissa)”. Toshkent-2000.

4.Irzayev B. Turkiston jadidlarining “Ko‘mak” tashkiloti. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016.

